

## TARIX DARSLARIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

*Toshkent imkoniyati cheklangan shaxslar uchun  
ixtisoslashtirilgan 1-son kasb-hunar maktabi tarix fani o'qituvchilarini  
Madraximova Ra'noxon Erkindjanovna  
Shodiyorova Mahfuza Sayfullayevna*

**Annotatsiya:** Ushbu maqola orqali hozirgi kunda tarix fanini o'qitishda kompyuter va axborot texnologiyalarining o'rni va ahamiyatini ko'rsatib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** Zamonaviy axborot texnologiyalari, interfaol usullar, ta'lif tizimi, innovatsiyalar, malakali pedagogik kadrlar, zamonaviy darslar.

Yurtimizning rivojlanishi uchun olib borilayotgan turli sohalardagi keng ko'lamli ishlar uzlusiz ta'lif tizimini yaratish, shu bilan birga, mustaqil fikrlay oladigan, ijodkor, jamiyatda o'z o'rninga ega shaxsni kamol toptirishda namoyon bo'lmoxda. Prezidentimiz SH.M.Mirziyoyevning rahbarligidagi hukumatimiz, maktab o'quvchilarini innovatsion va kreativ fikrlaydigan, zamonaviy kadrlar tayyorlash, yoshlarni vatanparvarlik ruhida yuksak ma'naviyat egalari etib tarbiyalash, shu maqsadda ta'lif tizimini takomillashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratib kelmoqda.

Ta'larning vositalari o'qitish va o'rganish sifatini ko'tarishga xizmat qiladi. Tarix darslarida ta'larning texnika vositalaridan foydalanish darsning samaradorligini oshiradi. Ta'larning texnika vositalari o'qitish va o'rganish sifatini ko'tarishga, o'quvchilarning o'quv materialini qiziqib o'rganishiga va puxta o'zlashtirishiga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasining “Ta'lif to'g'risida”gi Qonunida ta'lif sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari belgilangan. Ular quyidagilardan iborat:

- ✓ ta'lif va tarbiyaning insonparvar, demokratik xarakterda ekanligi;
- ✓ ta'larning uzlusiz va izchilligi va bilimli bo'lish va iste'dodni rag'batlantirish;
- ✓ umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'liming majburiyligi;
- ✓ ta'lif tizimining dunyoviy xarakterda ekanligi;
- ✓ davlat ta'lif standartlari (DTS) doirasida ta'lif olishning hamma uchun ochiqligi;
- ✓ ta'lif dasturlarini tanlashda yagona va tabaqlashtirilgan yondashuv;
- ✓ ta'lif tizimida davlat va jamoat boshqaruvini uyg'unlashtirish kabi omillar o'z ifodasini topgan.

Umumta'lif maktablarida tarix fanining o'qitilishi “Ta'lif to'g'risida”gi Qonunda belgilangan ana shu prinsipga tayanadi. Tarix fanining maqsadi – o'quvchilarda tarixiy ma'lumotlar ko'nikmasini tarkib toptirishdan iborat. Tarix darslarida o'quvchilarda ijodiy fikrlesh, o'z fikrini ravon bayon qilish hamda yozma usullarda to'g'ri, xatosiz, o'rinli ifodalash ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish, tarixiy ma'lumotlarni ongli o'zlashtirishga o'rgatish, shuningdek, ularning fikr doiralarini kengaytirishga, ona yurtimiz,

avlod-ajdodlarimiz qoldirgan boy ma'naviyatimiz, milliy urf-odatlarimizga mehr-muhabbat ruhida tarbiyalashga qaratish alohida ahamiyat kasb etadi. Elektron taqdimot darslarida slaydlardan ko'rgazmali material sifatida foydalanish o'qituvchi uchun keng imkoniyat yaratadi. O'quv materialining elektron taqdimotida animatsiyalar asosida berilishi nazariy ma'lumotlarni o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishini yengillashtiradi va ko'rgazmalilikni oshiradi.

Multimediyadan foydalanish nima beradi?

➤ tarix darslarida multimediyadan foydalanish eski texnologiyalardan foydalanishda mavjud bo'Imagan yangi imkoniyatlarni ochadi;

➤ ta'lim oluvchiga o'quv materialini yaxshiroq tushunishga va eslab qolishga yordam beradi;

➤ interfaol ish tartibi o'quvchiga o'quv tezligiga ta'sir qilishi, materialni o'zlashtirish darajasini tekshirish va darsning tushunarsiz qismlarini takrorlashga qaytish imkonini beradi.

Namoyish slaydlarini o'quvchilarga tarqatma material sifatida ham berish mumkin. Slaydlarga o'quvchilar o'zlarining munosabatlarini bildirib, ularni nazariy tomondan tahlil qilishishadi. Multimedia axborotlarni har xil ko'rinishlarda tasvirlash va dinamik obrazlarni yaratish, uni ko'rish hamda eshitish organlari orqali qabul qilish, tasavvur etish imkoniyatlarini hosil qiladi.

O'quv kinofilmlari ham ta'limning ko'rsatmali vositalari jumlasidandir, tarix o'qitishda o'quv kinofilmli vositadir. Kinofilm o'quvchilar ko'z o'ngida tarixiy voqeanning jonli obrazini ko'rsatmali qilib to'liq harakatda gavdalantiradi.

O'quvchilar boshqa ko'rgazmali qurollardan ko'ra kinofilmlar vositasida tarixiy o'tmishni jonliroq idrok etadi. Tarixiy mavzularga bag'ishlangan badiiy filmlar (masalan "Qirq birinchi yil olmasi") "O'zbekiston tarixi" fanini o'qitishda o'zining mazmuni va tarixiy voqealarni jonli qilib ko'rsatish jihatidan tarixiy badiiy asarlarga o'xshab ketadi.

Kinofilmlar, ayniqsa badiiy filmlar o'quvchilarga ijobiyligi ta'sir ko'rsatish, estetik va axloqiy tarbiya berish vositasi hamdir. Kinofilmlar bilim olish vaqtini iqtisod qilishga yordam beradi. O'quvchilar oddiy sharoitda o'quvchining bayonidan muzey va har xil tarixiy joylarga ekskursiyalarda bo'lib soatlar sarf qilib oladigan bilimlarni 10 – 15 daqiqали filmni ko'rib ham olishlari mumkin. O'quv filmlarining emotsiyal, estetik ta'siri ham boshqa ko'rsatmali qurollarga nisbatan shubhasiz kuchlidir.

Hozirgi davrda barcha jabhani o'z ichiga olib borayotgan kompyuter tizimidan ham tarix darslarida foydalanish ijobiyligi natijalarga olib keladi.

Kinofilmni o'quvchilarga ko'rsatishdan oldin, o'qituvchining o'zi uni sinchiklab ko'rib chiqishi va o'rganishi lozim. Bu bilan o'qituvchi filmning umumiyligi mazmuni bilan, asosiy diqqatni jalb qiladigan eng muhim kadrlar va suxandon matni bilan tanishtiradi. Shundan keyingi film o'quvchilarga ko'rsatiladi, so'ngra film yuzasidan suhbat o'tkaziladi, eng muhim kadrlar yuzasidan savollar beriladi, film mazmuniga bog'lab uyg'a vazifa topshiriladi.

Tarix o'qitish tajribasida o'quv filmlaridan foydalanishning quyidagi asosiy usullari mavjud:

a) o'qituvchi o'z bayonini o'quv filmining eng muhim va yorqin kadrlarni ko'rsatish bilan bog'lab olib boradi. Tanlab olingan o'sha kadrlarni izohlaydi va tegishli xulosa chiqaradi.

b) 10-15 daqiqali qisqa o'quv filmlariga bag'ishlab dars o'tkaziladi.

c) maxsus kino darsi tashkil etiladi.

d) darsdan tashqari vaqtida film tomosha qilinadi.

Axborot texnologiyalari ta'lif jarayonida quyidagi vazifalarni yechish imkonini beradi:

✓ internetda keltirilgan nazariy ma'lumotlar bilan ishlash ko'nikmasini rivojlantirish hamda o'tilgan mavzuni mustahkamlash;

✓ didaktik-kompyuter dasturlaridan ko'rgazmali qurol sifatida foydalanish;

✓ uslubiy-mavzuni tushuntirish va dars natijalarini tahlil etishda kompyuter ishlatish usullarini belgilash;

✓ tashkiliy-ta'lif jarayonini qisqa vaqt ichida samarali uyushtirish;

✓ o'quvchilarda axborot texnologiyalari bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirish.

Xulosa qilib aytganda, ta'lif maskanlarida yosh avlod ta'lif-tarbiyasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'g'il-qizlarning zamonaviy bilim olishi, yuksak ma'naviyatli bo'lib ulg'ayishi uchun shart-sharoit yaratish borasidagi ishlar izchil davom ettirilmoqda. Jamiyat ilmiy darajasining yuqoriligi mamlakat taraqqiyotining muhim sharti va kafolatidir. Shu narsa haqiqatki, biron-bir mamlakat o'z bilish imkoniyatlari tayanmay, odamlar ongi, tafakkurida ma'naviy va axloqiy qadriyatlarni rivojlantirmay, xalqning savodxonlik ruhini uyg'otmay turib, yuksak taraqqiyot darajasiga ko'tarila olmaydi. O'quvchilarni mamlakatimiz ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida tarix fanining imkoniyatlaridan to'liq va to'g'ri foydalanishga oid masalalar bo'yicha zaruriy bilimlar bilan qurollantirish maqsadga muvofiq. Nazariy mavzular sifatida ajratilgan nazariy ma'lumotlar yagona uslubiyatga bo'yundirilgan tarzda ta'lif oluvchining ham nazariy bilimlarini oshirishga, ham nutqiy savodxonlik bo'yicha amaliy ko'nikmalarini mustahkamlashga xizmat qilishi lozim. Har bir xalq o'zining tarixiy taraqqiyoti jarayonida yaratgan barcha madaniy va ilmiy boyliklarini avloddan avlodga meros qoladigan asosiy vosita sanaladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1.Sh. Mirziyoyev- Milliy taraqqiyot yo'llimizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz.Toshkent –"O'zbekiston", 2017 ,4-bet

2. "Ta'lifda innovatsion texnologiyalar" A.Abduqodirov, R.Ishmuhammedov: 2008.

3. Abdurazzoqova D "Interfaol metodlar: nazariya, amaliyot, tajriba" Pedagoglar uchun qo'llanma. Toshkent – 2013- yil.

4. Aminov M. Madvaliyev A, Mahkamov N, Mahmudov N. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, Toshkent: 2017-yil, 456-b.